ISHEMIK GENEZLI SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGIDA BUYRAK GEMODINAMIKASINING GENDER XUSUSIYATLARI

Baxramova Azima Abbosovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-kurs mustaqil izlanuvchisi

Dolzarbligi. Surunkali yurak yetishmovchiligi (SYuE) yurak-qon tomir kasalliklarining og'ir asoratlaridan biri bo'lib, uning kechishida yurak va buyrak o'rtasidagi funksional bog'liqlik muhim patogenetik ahamiyatga ega. Yurak chiqarish hajmining kamayishi, venoz dimlanish va neyrogumoral tizimlarning faollashuvi buyrak perfuziyasining buzilishi hamda buyrak tomirlarida qarshilikning ortishiga olib keladi. Shu sababli buyrak arteriyalaridagi qon oqimini Doppler ultratovush tekshiruvi yordamida baholash kardiorenal buzilishlarni erta aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, buyrak tomirlarining rezistentlik indeksi (RI) mahalliy buyrak gemodinamikasi holatini aks ettiruvchi muhim funksional ko'rsatkich hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda buyrak arteriyalari gemodinamik ko'rsatkichlarini baholash va aniqlangan o'zgarishlarning gender xususiyatlarini qiyosiy o'rganish.

Material va usullar. Tadqiqotga ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan jami 165 nafar bemor jalb qilindi. Ulardan 85 nafari ayollar va 80 nafari erkaklarni tashkil etdi. Bemorlarning buyrak qon aylanishi ultratovush Dopplerografiyasi yordamida o'rganildi. Buyrak magistral, segmentar va interlobar arteriyalarida maksimal sistolik qon oqimi tezligi (Vmax), minimal diastolik qon oqimi tezligi (Vmin) hamda tomir rezistentlik indeksi (RI) aniqlandi. Olingan natijalar erkak va ayol bemorlar o'rtasida qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar. Tekshiruv natijalari ishemik genezli SYuE bo'lgan bemorlarda buyrak tomirlarining barcha o'rganilgan darajalarida mahalliy gemodinamikaning buzilganligini ko'rsatdi. Ayollarda o'ng buyrak magistral arteriyasida Vmax 56,88±0,93 sm/sek, chap buyrakda 56,02±0,91 sm/sekni tashkil etdi. Erkaklarda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 56,86±0,88 va 55,88±0,82 sm/sek bo'ldi. Ushbu ko'rsatkichlar klinik me'yorning pastki chegaralariga yaqin ekanligi aniqlandi.

Minimal diastolik qon oqimi tezligining pasayishi yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Ayollarda o'ng va chap buyrak magistral arteriyalarida Vmin mos ravishda 14,26±0,28 va 13,92±0,24 sm/sekni, erkaklarda esa 14,29±0,25 va 13,96±0,21 sm/sekni tashkil etdi. Segment va interlobar arteriyalarga o'tilishi bilan diastolik qon oqimi tezligining yanada pasayishi kuzatildi.

Eng muhim o'zgarish buyrak tomirlarining rezistentlik indeksida qayd etildi. Ayollarda o'ng buyrak magistral arteriyasida RI 0,748±0,003, chap buyrakda 0,751±0,003 ni tashkil etdi. Erkaklarda esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 0,748±0,003 va 0,749±0,003 ga teng bo'ldi. Me'yoriy RI 0,58–0,64 ekanligini hisobga olganda, har ikki jins vakillarida buyrak tomir qarshiligining sezilarli oshishi kuzatildi. Segment va interlobar arteriyalarda ham RI me'yoriy ko'rsatkichlardan yuqori darajada saqlanib qoldi.

Olingan natijalar buyrakdagi mahalliy gemodinamik buzilishlar erkak va ayollarda deyarli bir xil yo'nalishda kechishini ko'rsatdi. Bu SYuE sharoitida tizimli neyrogumoral faollashuv va vazokonstriksiya mexanizmlari gender omilidan qat'i nazar buyrak tomir havzasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xulosa. Ishemik genezli surunkali yurak yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarda buyrak arteriyalarida diastolik qon oqimi tezligining kamayishi va tomir rezistentlik indeksining oshishi bilan tavsiflanuvchi mahalliy gemodinamik buzilishlar rivojlanadi. Ushbu o‘zgarishlar erkak va ayollarda deyarli bir xil darajada namoyon bo‘lib, buyrak tomirlarining rezistentlik indeksini kardiorenal disfunksiyani erta aniqlashda muhim funksional marker sifatida qo‘llash imkonini beradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.